



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

INKLUZIV TA'LIM

Maqsudova Mardon Maqsud qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Special pedagogy fakulteti talabasi

mardonamaqsudova2@gmail.com

+998500702327

Annatatsiya:

UNICEFning O'zbekistondagi eng muhim ustuvor yo'naliishlaridan biri e'tibordan chetda qolgan bolalarni inklyuziv ta'lif bilan qamrab olishdir.

Muhim ijobiy natijalar bilan bir qatorda tengsizlik hali ham davom etayotganini ko'rish mumkin. Bu, ayniqsa, qishloq joylaridagi maktabgacha yoshdagi bolalar va nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan seziladi.

Kalit so'zlar: UNICEF, Inklyuziv ta'lif, Qo'llab-quvvatlash, Maktab, Rivojlantirish, Ummum ta'lif, Ishonchni oshirish, Integratsiya, Hamkorlik, O'qtuvchi malakasi, Ijobiy natijalar, Maktabgacha ta'lif, Takomillashtirish.

Аннотация:

Одним из важнейших приоритетов UNICEF, в Узбекистане является обеспечение инклюзивным образованием безнадзорных детей.

Несмотря на значительные положительные результаты, неравенство по-прежнему сохраняется. Особенно это касается детей дошкольного возраста в сельской местности и детей с ограниченными возможностями.

Ключевые слова: инклюзивное образование, поддержка, школа, развитие, всеобщее образование, укрепление доверия, интеграция, сотрудничество, квалификация учителей, положительные результаты, дошкольное образование, совершенствование.

Annotation:

One of UNICEF's top priorities in Uzbekistan is to reach the most disadvantaged children with inclusive education.



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

Despite significant positive results, inequalities persist, particularly among pre-school children in rural areas and children with disabilities.

Keywords:UNICEF, Inclusive Education, Support, School, Development, Universal Education, Confidence Building, Integration, Collaboration, Teacher Qualifications, Positive Outcomes, Preschool Education, Improvement.

UNICEF ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratib, ta'lim sifatini oshirishga harakat qilmoqda.Xususan, UNICEF hamda Maktabgacha va mактаб та'лими vazirligi inklyuziv ta'lim bo'yicha yangi yo'riqnomalar, standartlar va mexanizmlar sinovdan o'tkaziladigan inklyuziv maktablarni modellashtirishni boshladilar. Bu inklyuziv ta'lim sifatini yanada yuqori standartlarga ko'tarishga qaratilgan yangi qonunchilik va siyosatni ishlab chiqish uchun ma'lumot beradi. O'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha boshqa tashabbuslarni to'ldirgan holda bunday maktablarning ilg'or tajribalari o'rganiladi va tadbiq etiladi.UNICEFning mактаб binolarini universal loyihalash bo'yicha yo'riqnomasiga asoslanib, nogironligi bo'lgan bolalar uchun qulay infratuzilmaga ega maktablarni loyihalash, shuningdek, Toshkent shahridagi oddiy maktabda tegishli ishlarni UNICEFning O'zbekistondagi eng muhim ustuvor yo'naliшlaridan biri e'tibordan chetda qolgan bolalrni inklyuziv ta'lim bilan qamrab olishdir.Muhim ijobiy natijalar bilan bir qatorda tengsizlik hali ham davom etayotganini ko'rish mumkin. Bu, ayniqsa, qishloq joylaridagi maktabgacha yoshdagi bolalar va nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan seziladi. UNICEF ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratib, ta'lim sifatini oshirishga harakat qilmoqda.

Xususan, UNICEF hamda Maktabgacha va mактаб та'лими vazirligi inklyuziv ta'lim bo'yicha yangi yo'riqnomalar, standartlar va mexanizmlar sinovdan o'tkaziladigan inklyuziv maktablarni modellashtirishni boshladilar. Bu inklyuziv ta'lim sifatini yanada yuqori standartlarga ko'tarishga qaratilgan yangi qonunchilik va siyosatni ishlab chiqish uchun ma'lumot beradi. O'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha boshqa tashabbuslarni to'ldirgan holda bunday maktablarning ilg'or tajribalari o'rganiladi va tadbiq etiladi.UNICEFning mактаб binolarini



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

universal loyihalash bo‘yicha yo‘riqnomasiga asoslanib, nogironligi bo’lgan bolalar uchun qulay infratuzilmaga ega maktablarni loyihalash, shuningdek, Toshkent shahridagi oddiy maktabda tegishli ishlarni amalga oshirishni UNICEF qo‘llab-quvvatladi. Bu inkluziv maktablar sonini yanada oshirishda model bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur jarayon maktablarni qurilish va jihozlanish hozirda amal qilayotgan standartlarini ko‘rib chiqish uchun asos bo‘ldi. Bu esa Maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi vazirligiga 2027 yilga qadar barcha yangi va ta’mirlangan maktablarning 20 foizida bunday sharoitlarni ta’minlash bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishga yordam beradi. amalga oshirishni UNICEF qo‘llab-quvvatladi. Bu inkluziv maktablar sonini yanada oshirishda model bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur jarayon maktablarni qurilish va jihozlanish hozirda amal qilayotgan standartlarini ko‘rib chiqish uchun asos bo‘ldi. Bu esa Maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi vazirligiga 2027 yilga qadar barcha yangi va ta’mirlangan maktablarning 20 foizida bunday sharoitlarni ta’minlash bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishga yordam beradi.

Inkluziv ta’limning asosiy tamoyillari:

1. Teng imkoniyatlar: Har bir bola qaysi turdagи ehtiyoj yoki imkoniyatga ega bo’lishidan qat’i nazar, bir xil ta’lim olish huquqiga ega.
2. Farqlarga hurmat: Har bir o’quvchining individual qobiliyatları, ehtiyojlari va madaniyati hurmat qilinadi.
3. Integratsiya: Maxsus ehtiyojli bolalar umumta’lim muassasalarida sog’lom tengdoshlari bilan birga o’qiydi.
4. Qo’llab-quvvatlash: Maxsus pedagoglar, psixologlar va boshqa mutaxassislar tomonidan qo’shimcha yordam ko’rsatiladi.

Inkluziv ta’limning ahamiyati:

- Jamiatda tenglikni ta’minlaydi.
- Ijtimoiy integratsiya va hamkorlik ko’nikmalarini rivojlantiradi.
- Maxsus ehtiyojli bolalar uchun o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.
- Barcha o’quvchilarni bir-birini hurmat qilishga o’rgatadi.



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

O'zbekistonda ham inkluziv ta'lif sohasida islohotlar amalga oshirilmoqda. Masalan, maxsus ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan sinflar tashkil etilmoqda va bu borada xalqaro tajribalar o'rganilmoqda.

Davlat siyosati va huquqiy asoslar:• 2020-yil 13-oktabrda Prezidentning “Alovida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Shuningdek, 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta'lif to'g'risida”gi qonunga ilk bor inkluyuziv ta'lif tushunchasi kiritildi.

Maktabgacha va maktab ta'lifi tizimidagi o'zgarishlar:• 2021-2022 o'quv yilidan boshlab respublika bo'yicha tajriba-sinov tariqasida 31 ta umumta'lif maktabida 46 ta inkluyuziv sinf tashkil etilib, ularda 87 nafar, 4 ta korreksion maktabdagi 4 ta sinflarda 35 nafar bola ta'limga jalb etildi. 2022-2023 o'quv yilida inkluyuziv ta'lif joriy etilgan umumta'lif maktablari soni 195 taga yetib, ularda 504 nafar imkoniyati cheklangan bolalar inkluyuziv ta'limga qamrab olindi.

- 2023-2024 o'quv yilida inkluyuziv ta'lif joriy etilishi tavsiya etilgan 390 ta maktabning qo'shimcha ro'yxati tasdiqlandi. Yangi o'quv yilidan boshlab, ota-onalarning xohish va istaklarini inobatga olgan holda respublikamizning barcha tuman va shaharlarda inkluyuziv maktablar tashkil etildi. 15-sentabr holatiga ko'ra, 208 ta tuman (shahar)ning 417 ta maktabida inkluyuziv sinflar tashkil etilib, ularda 734 nafar o'quvchi qamrab olingan.

Xalqaro hamkorlik va qo'llab-quvvatlash: • 2023-yil oktabr oyida USAID O'zbekistonda inkluyuziv ta'lifni qo'llab-quvvatlash dasturini e'lon qildi. Ushbu dastur inkluyuziv ta'lif tamoyillarini integratsiyalash maqsadida o'quv dasturlari materiallarini qayta ko'rib chiqishga, keng ko'lamli ta'lif ehtiyojlarini yanada qo'llab-quvvatlash uchun o'qituvchilar, maktab rahbarlari va boshqa mutaxassislarining kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan.

- 2024-yil mart oyida Qatar O'zbekistonda “yashil” ta'lif, iqlim o'zgarishi va inkluyuziv ta'lif kabi ijtimoiy loyihalarni birgalikda amalga oshirishni rejalashtirdi.

Malaka oshirish va treninglar:• 2023-yil avgust oyida Maktabgacha va maktab ta'lifi tizimida 2023-2024 o'quv yilida inkluyuziv ta'lif joriy etilgan umumiyo o'rta ta'lif muassasalarining direktorlari, boshlang'ich sinf o'qituvchilari va



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

psixologlari uchun 72 soatga mo'ljallangan maqsadli malaka oshirish kurslari tashkil etildi.

Maqsadlar va istiqbollar: O'zbekiston hukumati 2025-yilgacha alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalarning 40 foizini odatiy maktablarga jalb qilishni rejalashtirmoqda. Ushbu chora-tadbirlar O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish va imkoniyati cheklangan bolalarning sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Inklyuziv ta'lim nima?

Tengdoshlaringiz, sinfdoshlaringiz orasida imkoniyati cheklangan (nogiron) bolalar ham bor, to‘g‘rimi? Siz ular bilan do‘splashib, birga dars tayyorlaysizmi, birga o‘ynaysizmi?

Axir ular ham siz kabi jamiyatda baxtli bo‘lishga haqli, shunday emasmi?

Inklyuziv ta'lim hamma bolalarning bir xil mакtab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta'lim olishini anglatadi. Ya’ni imkoniyati cheklangan bola sog‘lom bolalar bilan bir xil e’tiborda o‘qiy olishi kerak. O‘zbekistonda oilaviy sharoitidan qat’i nazar, barcha bolalar davlat umumta’lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan.

Xo‘she nega inklyuziv ta'lim zarur?

Ba’zan tengdoshlarimiz, maktabdoshlarimiz orasida yoki mahallada imkoniyati cheklangan bolalarni ko‘rib qolsak, tushunib-tushunmasdan uni ajratib qo‘yishga, u bilan muloqot qilmaslikka harakat qilamiz. Bu noto‘g‘ri, aslida ular bilan o‘rtoq bo‘lib, bir jamoa bo‘lib yashasak, ularning baxtli hayot kechirishlariga hissa qo‘sishimiz mumkin.

Jamiyatda har bir bola baxtli bo‘lishga haqli!

Ma’lumot uchun: Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalarga mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan 86 ta maktabda 22 mingdan ortiq, sanatoriy turdagи maktab-internatlarda 6 mingdan ortiq o‘quvchi, uy sharoitida esa 13 mingdan ortiq o‘quvchi ta'lim oladi. Hozirda O‘zbekistonda 3 mingdan ortiq umumiyl o‘rta ta'lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o‘quvchilar inklyuziv ta'lim bilan qamrab olingan. 2025-yilgacha 40% imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'limga jalb etilishi rejalashtirilmoqda.



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

Inklyuziv ta'limda bolalarni birga ta'lim olishining asosiy sabablari quyidagilardir:

- 1. Jamiyatga moslashishh:** Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalarni birga o'qitish orqali ularni jamiyatga moslashishga o'rgatadi. Har bir bola boshqalarning ehtiyojlarini tushunib, hurmat qilishni o'rganadi.
- 2. Ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish:** Turli xil bolalar birga o'qiganda, ular bir-biriga yordam berish, muloqot qilish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.
- 3. O'z-o'ziga ishonchni oshirish:** Inklyuziv muhitda har bir bolaning qadr-qimmati e'tirof etiladi, bu ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va muvaffaqiyatga erishish istagini kuchaytiradi.
- 4. Ta'lim sifati yaxshilanishi:** Inklyuziv sinflarda pedagoglar ta'lim metodlarini moslashuvchan va samarali qilishga harakat qilishadi, bu esa barcha bolalar uchun foydali bo'ladi.
- 5. Diskriminatsiyaning oldini olish:** Turli ehtiyojlarga ega bolalarni birga o'qitish tenglik vaadolat tamoyillarini mustahkamlaydi, diskriminatsiyani kamaytiradi. Inklyuziv ta'lim nafaqat bolalar uchun, balki butun jamiyat uchun ijobjiy ta'sir ko'rsatadigan ta'lim modelidir.

Xulosa: Inkluziv ta'lim – bu barcha bolalarning, jumladan, alohida ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlaydigan zamonaviy ta'lim modeli. Ushbu yondashuv jamiyatda tenglik, hurmat va bag'rikenglikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Kelajakda inklyuziv ta'lim orqali har bir bola sifatli ta'lim olish imkoniga ega bo'lishi va jamiyatda o'z o'rmini topishi uchun keng imkoniyatlar yaratilishi kutilmoqda. Shu bilan birga, bu yondashuv nafaqat bolalar, balki ularning oilalari va jamiyat uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.M.U. Xamidova "Maxsus pedagogika"-T.: "Fan va texnologiya", 2018.
2. Ahmadaliyev A. Surdopedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Innovatsion ta'lim, 2018.
- 3.Elektron resurslar.